

## O'ZBEK TILINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VQA DUNYO MIQYOSIDAGI O'RNI

*Fayzullayev Kamronbek Boymalik o`g`li*

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*2-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Saliyeva Ziroat Zokirovna*

*Samarqand, Uzbekistan*

**ANNOTATSIYA:** Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda biron bir narsani sofligicha saqlab, asl holicha rivojlantirish anchayin mushkuldir. Jumladan, o'zbek tili ham bir muncha qiyinchilik va istilolarni boshidan o'tkazdi va olinma “parazit” so'zlar bilan “boyidi”. Sovet mustamlakasidan so'ng buzilgan go`zal tilimizni asliga keltirishda qator-qator qiyinchiliklar bilan yuzlashdik. Bundan tashqari, dunyo tillariga bo`lgan qiziqishlar ham oyoqdan chalmog`i, shubhasiz. Shunga qaramay, tilimizning kun sayin rivojlanib borayotgani g`urur hissini tuydiradi.

Har bir millatning ona Vatani borligi singari, ona tilisi ham bor. Biz kim o'zbeklarmiz, ona tilimiz - o'zbek tili. Din va millat hayotimizda naqadar o'rinn tutsa, tilimiz ham shu qadardir.

Tilimizning ne qadar go`zal va betakror ekanligiga shubhasi borlar bizning baytlarga boqsin. Kun sayin yangilanib borayotgan rivojlanish o'rni boqsin.

Ushbu maqola ona tilimizning uning rivojlanish tarixi, bugungi kundagi o'rni, rivojlanishidagi qiyinchiliklar, rivojlanishida amalga oshirilgan ishlar haqida malumot beradi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, sart, yozuv, lotin, krill, “Xamsa”, olinma so'zlar, hujjat

### 4-modda.

O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. [1]

Bugungi kunda ta’lim inson hayotining muhim qismiga aylanib ulgurdi, chunki u bilim va malakani oshirishning muhim omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga asoslanib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar[2].

Har bir millat tilining rivojlanishida undagi etnik xalqda kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi ulkan rol o‘ynaydi. O‘zbek tilining paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi ham uning ona tilida so’zlashuvchilarning tarixi va kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi bilan uyg‘undir. O‘zbek xalqi kabi bir millatning paydo bo‘lishi turkiy va eron tillarini birlashtiruvchi bir qator etnik guruhlarning birlashishi bilan bog‘liq edi. Bular orasida katta farqqa ega bo‘lgan o‘zbek lahjasidagi dialektlarning ko‘pligidan bilish mumkin.

O‘zbek tilining rivojlanish tarixini uch bosqichga bo‘lish mumkin:  
**qadimgi turkiy, qadimgi o‘zbek va zamonaviy o‘zbek tili davrlari.**

### **Qadimgi turkiy til**

Ushbu bosqich V-XI asrlarga tegishli. Turklar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg’oqlari bo‘ylab hind-eron qabilalari aholisini asta-sekin chiqarib yuborishgan. Aloqa vositasi qadimgi turkiy til bo‘lib, uning asosida keyinchalik ko‘plab Osiyo tillari paydo bo‘lgan. Bugungi kunda qadimgi turkiy yozuvning faqat o’sha davrga tegishli madaniy yodgorliklarda tasvirlangan qismlari mavjud.

### **Qadimgi o‘zbek tili**

Ikkinci bosqich XI-XIX asrlarga to’g’ri keladi. Shu vaqt ichida o‘zbek tili ko‘plab qo‘sni tillar ta’sirida rivojlandi. Tilning shakllanishiga birlashgan va rivojlangan adabiy tilni yaratgan shoir Alisher Navoiy ulkan hissa qo’shdı. Bu shaklda u 19-asrning oxirigacha o’zgarishsiz ishlataligan.

### **Hozirgi o‘zbek tili**

XX asrda zamonaviy o'zbek tilining shakllanishi boshlandi. Butun O'zbekiston aholisi tomonidan tan olingan Farg'ona lahjasi uning asosini tashkil etdi. Aholining aksariyati sartiya tili deb biladigan ushbu lahjada gapirishgan va uning karnaylari sartlar deb nomlangan. Etnik sartlar o'zbek xalqiga tegishli emas edi, ammo o'tgan asrning 20-yillarida "sart" so'zidan voz kechildi va mamlakat aholisi o'zbeklar deb nomlana boshladi. Adabiy til normalari yanada demokratiklashdi, bu esa uni ancha soddalashtirdi.[3]

Har bir til paydo bo'libdiki, o'zining og'zaki nutqidan tashqari yozma nutqiga ham ega bo'ladi. Yozma nutq esa to'g'ridan to'g'ri o'sha tildagi yozuv bilan chambarchas bog'liq. Har bir kishilik jamiyati paydo bo'lganidan so'ng u millat o'zining shaxsiy yozuviga ega bo'lishga intiladi. O'zbek xalqi ham shular jumlasidan, rivojlanish tarixi mobaynida o'zbek tilida uch xil yozuv turi mavjud bo'lgan. XX asrning 20-yillari oxirigacha o'zbeklarning etnik guruhi arab alifbosiga asoslangan edi. Sovet hokimiyati paydo bo'lishi bilan yozuv bir qator islohotlarga duch keldi. So'ng, 1938-yilgacha Lotin alifbosidan foydalanilgan, keyin esa kiril alifbosidan foydalanish joriy qilingan. O'zbekiston Respublikasiga mustaqil davlat maqomi berilganidan so'ng 1993-yilda yana lotin alifbosidan foydalanish tiklandi.

Hozirda o'zbek yozuvida arab harflari, lotin va kirill harflari parallel ravishda qo'llanilmoqda. Katta avlod krill grafikasini ma'qul deb bilishadi, chet elda yashovchi o'zbeklar esa arab harflariga o'rganishgan. Maktablarda o'quvchilar lotin tilida o'qishadi, shu tufayli bo'lsa kerak, o'quvchilar va o'qituvchilarga Sovet davrida nashr etilgan kitoblarni o'qish anchayin mushkul.

O'zbek tili, ayniqsa, fors tilidan olingan so'zlarga boy. O'tgan asr davomida lug'atimiz rus tilidagi so'zlar bilan sezilarli darajada boyitildi va bugungi kunda u ingliz tilidagi so'zlar bilan jadal ravishda to'ldirilmoqda. Davlat dasturiga muvofiq, o'zbek tilini boshqa tillardan olingan so'zlardan tozalash boshlangan.

Bularning barchasi, shubhasiz, o'zbek tilini va tarjimalarini o'rganishda ba'zi bir qiyinchiliklarga olib keladi, ammo uni o'ziga xos va yanada qiziqarli qiladi.

Hozirgi kunda ochiq manbalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 24 millionga yaqin, Afg'onistonda – 3 million, Todjikistonda - taxminan 1 million, Qozog'istonda – 500.000, Turkmanistonda – 350.000ga yaqin, Rossiyada 300.000 ga yaqin aholi o'zbek tilida muloqot qilishadi.

Shunisi quvonarliki, o'zbek tili jahonning eng yirik 50 tilidan biri, so'zlashuvchilarning ko'pligi bo'yicha qardosh tillar orasida 2-o'rinda turadi. Va yana, shuningdek, dunyo bo'ylab 70 ga yaqin universitetda o'zbek tili va adabiyoti o'qitiladi.

O'zbek tilining yer yuzidagi ravnaqi haqida gap ketganda, o'tmishda uning rivoji uchun hissa qo'shgan buyuk tilshunos olimlarni eslab o'tmoq joizdir. O'rta asrlarda Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy singari allomalar o'z asarlarini turkiyda bitib, tilimizning rivojiga hissa qo'shishdi. Buyuk mutafakkir Hazrat Alisher Navoiy esa, chin ma'noda bugungi o'zbek adabiy tilining poydevorini yaratdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning tashabbusi bilan ona tilimiz Xuroson mulkininig davlat tiliga aylandi. Navoiy ilk bor o'zbek tilida "Xamsa" yaratib, buyuk devonlar tuzdi, uning boshqa tillardan qolishmasligi ko'rsatib berdi. O'z asarlarida nafaqat o'zbek tilining boyligi va nafosati, balki o'zbek elining milliy qiyofasi, qadriyatlarini ham tarannum etdi:

*Shoh toju xilqatikim, men tamoshlo qilg'ali,*

*O'zbakim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.*

O'zbek tilidan temuriylardan farqli ravishda, turli davrlarda Oltin O'rda, shayboniylar, ashtarkoniylar, o'zbek xonliklari davrida ham bosh til sifatida foydalilanilgan. 1870-yilda o'zbek tilidagi ilk gazeta "Turkiston viloyatining gazeti" chop etila boshlagan. XX asr boshlarida o'zbek tili Buxoro va Xorazm Respublikalari (BXSR va XXSR)ning, Turkiston Muxtoriyati va Turkiston ASSRning, keyinchalik O'zbekiston SSRning rasmiy tili bo'lgan. Faqat 1989-yilning 21-oktyabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan. Bu

mustaqillikdan 2 yil oldin edi. G`o`yo mustaqillikni belgilagan bu voqeadan keyin davlat hujjatlari, kitoblar va darsliklar o`zbek tilida yuritiladigan bo`ldi.

Yangi paydo bo`layotgan zamonaviy tushunchalarga nom berish, so`z va atamalarni rasmiy iste`molga kiritishni tizimli yo`lga qo`yish uchun Atamalar komissiyasining faoliyati tubdan takomillashtirildi, bu borada aniq ilmiy mezonlar ishlab chiqildi. O`tgan yildan e`tiboran me`yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o`tkazish tizimi yaratilgani tegishli hujjatlarning davlat tili talablariga mos va uslubiy jihatdan puxta tayyorlanishiga xizmat qilmoqda. (3)

Ona tilimizni rivojlantirish maqsadida bugungi kunda keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

1. Rahbarlik lavozimlariga nomzodlarning o`zbek tili bo`yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida milliy test tizimi joriy etilib, qisqa vaqt ichida 3 mingdan ziyod talabgorning qariyb 1 ming 500 nafariga davlat tilini bilish bo`yicha sertifikatlar berildi.

2. Davlat tili asoslarini chuqur va atroflicha o`rganishni ta`minlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O`zbek tilini rivojlantirish jamg`armasi tomonidan 58 nomdagi qomus, lug`at va qo`llanmalar ko`p ming nusxalarda chop etildi.

3. Keyingi yillarda o`zbek tilini raqamlashtirish borasida jiddiy natijalarga erishilmoqda. O`zbekcha matnlarni sun`iy intellekt yordamida qayta ishslash va o`zbek tilida muloqot qilishga mo`ljallangan “aqli” dastur ishlab chiqilib, “O`zbek tili izohli lug`ati”ning veb-sayti yaratildi.

4. Yaqinda mamlakatimizda badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot ta`sis etildi.

5. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan „Vikipediya“ xalqaro internet ensiklopediyasidagi o`zbekcha ma`lumotlar hajmi keskin ko`payib, davlat tilida e`lon qilinayotgan maqolalar hajmi bo`yicha O`zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi mamlakatga aylandi.

6. Markaziy teleradiokanallar orqali o‘zbek tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘rsatuv va eshittirishlarning muntazam berib borilmoqda.

7. Teleradiokanallar va internet saytlarida davlat tilini o‘rganishga yordam beradigan dasturlarning soni va efir vaqtlarini ko‘paytirildi, mustaqil til o‘rganuvchilar uchun qo‘shimcha adabiyotlar, lug‘at va qo‘llanmalar nashr etish doimiy e’tibor markazida bo‘lmoqda.

Ayni paytda o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish, ularni lotin va kirill yozuviga o‘girish va so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini ko‘rsatishga mo‘ljallangan elektron dasturlar ham amaliyotda faol qo‘llanmoqda.

2025-yil 1-yanvardan boshlab umumta’lim maktablarida milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘zbek tili o‘qituvchilariga maoshining 50 foizi miqdorida oylik ustama haq to‘lanishi ona tilimiz fidoyilarining sharaflı mehnatini rag‘batlantirishga xizmat qilishi shubhasiz. [4]

Prezidentimizning 2020-yil 20-oktyabrda imzolangan «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni alohida e’tiborga sazovorligini ta’kidlash lozim. Mazkur hujjatda o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlashga doir istiqboldagi vazifalar ko‘zda tutilgan.

Prezident Farmonida O‘zbekistonidagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilini yanada rivojlantirishga qaratilgan uchta muhim hujjat:

birinchidan, 2020–2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi;

ikkinchidan, 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022 yillarda amalga oshirish dasturi;

uchinchidan, 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. [5]

Bugungi kunda ana shu hujatlarda o‘z aksini topgan aniq va qamrovdor vzifalar ijrosini ta’minlash uchun davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, tibbiyot sohalarida, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va harbiy muassasalar faoliyatida to‘liq davlat tilida ish yuritish bo‘yicha boshlangan ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek tili dunyo tillari orasida o‘z maqqe’yiga ega til. Uning jozibasi va betakrorligi til bilan ta’riflab bo’lmashdir. Kundan kunga ravnaq topib borayotganini ko`rib faxr tuyadi kishi.

Chet davlatga ketsangiz, shubhasiz, chet tillik insonlar orasida bo`lasiz. O`sha joyda bitta bo`lsin o‘zbek tilida so`zlashgan kishi ko`rsangiz ko`zingizga quvonch ko`z yoshlari keladi. O`sha odam bilan suhbat qurgingiz, dardlashgingiz keladi. Ona Vatanni his qilgingiz keladi. Ona tilingizda diydorlashib maroq olishga harakat qilasiz.

Bugungi kunda, ayniqsa, yoshlar o`rtasida chet tillarni o`rganishga bo`lgan qiziqish oshib bormoqda. Buni yomon demoqchi emasman. Lekin o`rganuvchilar joylarda o‘z tilining sofligini buzib, chet so`zlarni qo`shib suhbat qilishi odamning dilini xira qiladi. Yoshlar o`ylashadiki, agar shu tarzda suhbat qilsam, “krutoy” ko`rinaman, obro` topaman. Yo`q, aksincha, hurmat qilgan odam hurmat topadi. Tilga e’tibor – elga e’tibor. Zero, o`zimizni bo`lgan narsani o`zimiz yuksaltira olamiz, o`zga emas!

### ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Gulruk Xasanova, & Kamronbek Fayzullayev. (2024). XXI ASRDA XORIJY TILLARNI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI . Ta’lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 19(2), 67–70. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/4483>

2. <https://constitution.uz/oz/clause/index>
3. [polito.uz](http://polito.uz)
4. <https://president.uz/oz/lists/view/2954>
5. <https://uz.wikipedia.org/wik>